O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI JIZZAX SHAHAR HOKIMI QARORI

2022 - yil 3 - mart 100-3-55-Q/22 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Dafn etish va dafn ishi to'g'risida”gi Qonuni (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010-y., 52-son, 508-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 14-son, 138-modda) qarori ijrosini ta'minlash hamda shahar hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda) 6, 25-moddalariga va “Normativ huquqiy-hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning 16-moddasiga (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 y., 03/21/682/0354-son) asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Jizzax shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Shahar hokimi o'rinbosarlari (X.Onalboyev, Sh.Axmedov) fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda tegishli hududdagi aholining qabristonlarni yaroqli holda saqlash va obodonlashtirishga doir ishlarda ixtiyoriylik asosida qatnashishini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

3. Jizzax shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Qobilov) xizmatlar uchun belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonlarda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasin.

4. Qaror “Jizzax ovozi” gazetasida e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-

saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2022-yil 17-yanvardagi 13-3-55-Q/22-sonli qarori bekor qilinsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o'rinbosari X.Onalboyev zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Шаҳар ҳокими **К.Холмуродов**

Jizzax shahar hokimining
2022 yil 3 martdagi
100-3-55-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Jizzax shahridagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha

TARIFLAR MIQDORI

T/R	Xizmat turi	O'lchov birligi	To'lov miqdori (so'mda)
1	Tegishli diniy konfessiya qabristonlarida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastkalar berish	m^2	bepul
2	Musulmoncha go'r qazish (16 yoshdan katta)	1 go'r	148 500
3	Musulmoncha go'r qazish (3-16 yosh)	1 go'r	121 500
4	Boshqa dinga mansublar uchun go'r qazish (katta)	1 go'r	121 500
5	Boshqa dinga mansublar uchun go'r qazish (kichik)	1 go'r	94 500
6	Go'r qazish (diniy mansubligidan qat'iy nazar 3 yoshgacha)	1 go'r	bepul
7	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o'rin/kunga	bepul
8	Raqamli ustuncha	1 dona	8 000